

TIL VA GENDER: JINSIY FARQLAR TILDAN FOYDALANISHDA QANDAY AKS ETISHI.

Bobohonova Diyora Mansurovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) 3- bosqich talabasi

Sapayeva Sohiba Otaxonovna.

O'zJTDU katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11552658>

Annotatsiya. Maqolada “til va gender” jinsiy farqlar tildan foydalanishda qanday aks etishining zamonaqiy lingvistikada ahamiyati va ligivistik olimlar nazarida bu konsept qay darajada o'z aksini topganligi, shu bilan bir qatorda nazariy konseptual maqomi, uning tadqiqot metodlari, usullari va stilistik turlaridan iborat yaxlit tizim ekanligi tahlil etilgan. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida “til va gender” tushunchasining ligvistik qiyosiy nuqtai nazarini to'g'ri talqin qilish tilshunoslik gipotezasini boyitish uchun ilmiy- nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Gender lingvistika zamonaqiy tilshunoslikning yangi soxasi ekanligi ayol va erkaklar muloqot jarayonida qanday til birikmalarini qo'llashlari haqida. Ushbu tadqiqot maqsadi quyidagicha izohlanadi ya'ni ingliz va o'zbek matnlarida “til va gender” ning lingvistik hususiyatlarini qiyoslash va ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, til va gender, jinsiy farqlar, ijtimoiy ro'l va til, lingvistik nazariya, kod almashuvi, muloqot uslublari, til siyosati, gender stereotiplari, gender va leksika, diskurs strategiya, tilning ijtimoiy funksiyalari, gender tengligi, til va madaniyat, ijtimoiy aloqalar.

LANGUAGE AND GENDER: HOW GENDER DIFFERENCES ARE REFLECTED IN LANGUAGE USE.

Abstract. The article analyzes the significance of the reflection of “language and gender” sexual differences in the use of language in modern linguistics and to what extent this concept is reflected in the eyes of linguistics scientists, as well as its theoretical conceptual status, its research methods, methods and stylistic types as a whole system. The correct interpretation of the linguistic comparative perspective of the concept of “language and gender” in English and Uzbek literary texts serves as a scientific theoretical basis for enriching the hypothesis of linguistics. Gender linguistics is a new branch of modern linguistics that deals with the language combinations that women and men use to the process of this research is explained as follows: it is to compare and reveal the linguistic features of “language and gender” in English and Uzbek literary texts.

Keywords: Sociolinguistics, language and gender, gender differences, social role and language, linguistic theory, code switching, communication styles, language policy, gender stereotypes, gender and lexicology, discourse strategy, social functions of language, gender equality, language and culture, social relations.

ЯЗЫК И ГЕНДЕР: КАК ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ОТРАЖАЮТСЯ НА ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЯЗЫКА.

Аннотация. В статье анализируется значение отражения «языковых и гендерных» половых различий в использовании языка и современно языкоznани и в какой степени это понятие отражено в глазах ученых- лингвистов, а также теоретико концептуальный статус, методы его исследования, приемы и стилистические типы как целостная

система. Правильная трактовка лингвистического справнительного аспекта понятия «язык и пол» в английских и узбекских художественных текстах служит научно-теоретической основной для обогащения гипотезы языкоznания. Гендерная лингвистика-новый раздел современной лингвистики, занимающийся языковыми сочетаниями, которые женщины и мужчины используют в процессе общения. Цель данного исследования объясняется следующим образом: сравнить и выявить лингвистические особенности «языка и пола» в английских и узбекских художественных текстах.

Ключевые слова: Социолингвистика, язык и гендер, гендерные различия, социальная роль и язык, лингвистическая теория, переключение кода, стили общения, языковая политика, гендерные стереотипы, гендер и лексика, стратегия дискурса, социальные функции языка, гендерное равенство, язык и культура, социальные отношения.

Kirish. Lingvistik ilmiy izlanishlarning asosini jamiyat va tilning bir-biriga ta'sirini tashkil etadi. “Til va gender” mavzusi sotsiolingvistikada muhim o'r'in tutadi. Gender til foydalanishda muhim ro'l o'ynaydi va turli madaniyatlarda erkaklar va ayollar tilni qanday ishlatalishda sezilarli faqlar mavjud. Gender farqlari-turli jins vakillari o'rtasidagi farqlar. Gender tadqiqotlari rivojlanayotgan bilim sohasi bo'lib, unda yangi gender nazariyalari paydo bo'ladi va ular asoslanadi, eskilari tanqid qilinadi va shuning uchun jins toifasi, shuningdek, unga tegishli boshqa tushuncha o'rnashgan tushuncha deb hisoblanmaydi. Ushbu tadqiqot dastlab feministik harakatlar va feministik nazariya bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan ammo 1990-yillarning mustaqil deb hisoblana boshlanadi.

Xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-modda.

Muloqat kishilik jamiyat mavjudligining zaruriy shartlardan biridir. Muloqot insonlar o'rtasidagi his- tuyg'ularni, fikrlarni, g'oyalarni, istak hohishlarni bayon qilishi uchun eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Muloqot jarayonida tilshunoslik, psixologiya, tarix, mantiq, pedagogika va boshqa ayrim fanlarning ajralmas qismi sifatida dunyo ilm-fanida o'rganib kelinmoqda.

Asosiy qism: Gender tushunchasi ingliz tiliga lotin tilidagi “genus” so'zidan o'tgan bo'lib, “jins” degan ma'noni anglatadi. Jins va gender tushunchalari farqlarini 1- marta 1968 yilda Kaliforniya Universiteti proffesori Robert Stoller amalga oshirdi. Gender lingvistikada ayollar va erkaklarning bir biridan kommunikativ jixatdan qanday farq qilishi chuqr o'rganiladi. Ikki xil jins vakillarining nutqida juda katta farq bo'ladi.

Demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri ayollar va erkaklarning barcha soxalarida teng huquqligini e'tirof etish bo'lib, uni yoshlikdan shakllantirish zarur. Bunga ta'limda gender yondashuvi tamoyillari yordam berishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda til va gender strategiyasi mavjud bo'lib, u jinslarning lingvistik madaniyatini ko'rsatib beradi.

Gendertilshunoslik dastlab XX asr so'nggida g'arb tilshunoslik ilmida va keyinchalik sharqda o'rganila boshlandi. Til va gender munosabatlari murakkab va ko'p qirrali. Tilning jinsiy farqlarini o'rganish ijtimoiy va madaniy kontekslarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi muloqotning qanchalik farqlanishining tushunishga yordam beradi. Bu mavzu bo'yicha kelajakdag'i tadqiqotlar turli madaniyat va tillarda gender tilni yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Xususan, tilshunoslikda erkak va ayollar tildan foydalanishda turli ijtimoiy ro'l va majburiyatlar mavjud. Ayollar ko'proq yumshoq, muloyim va diplomatik tildan foydalanishga moyil bo'ladi, erkaklar esa ko'proq to'g'ridan to'g'ri va buyruq ohangida gapirishadi. Tadqiqotlar ayollar ko'proq his tuyg'ularni ifodalovchi va munosabatlar haqidagi so'zlardan foydalanishni ko'rsatmoqda. Erkaklar ko'proq texnik va abstrakt so'z boyligidan foydalanadi.

Lingvistik nuqtai nazardan ayollar ko'proq savol berishga va suhbatni qo'llab quvvatlashga moyil bo'lsa, erkaklar ko'proq fikrlarni aytishga va suhbatni boshqarishga intiladi. Ayollar ko'proq konsensus va kelishuvga intiladigan til uslubidan foydalanadi.

Erkaklar va ayollar kid almashish usullarida ham farqlanishi mumkin. Ayollar ko'prow ijtimoiy holat va mavqeyga qarab kod almashishi mumkin, erkaklar esa ko'proq maqsadga yo'naltirilgan almashish usullaridan foydalanadi. Ayollar ko'proq muloyimlik va iltifot so'zlardan foydalanadi. Erkaklar esa ko'proq buyruq va talab ohangida gapirishadi. Jinsiy farqlar tilning turli jixatlarida, jumladan leksika, sintaksis, pragmatika va diskursda aks etadi. Erkaklar va ayollar orasida tilning turli xil ishlatilishi, nafaqat biologik balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liq. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi til farqi turli madaniyat va jamiyatlarda turlicha ko'rinishda bo'ladi.

Til va gender o'rtasidagi munosabatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'rganiladi:

1. Lingvistik nazariyalar: ayollar va erkaklar tilidagi farqlarni tushuntiruvchi nazariyalar mavjud bo'lib, ular tilning genderga asoslanib ishlatilishini tahlil qiladi. Masalan, defitsit model, dominatsiya modeli va farqlar modeli bu yo'nalishda muhim ro'l o'ynaydi.

2. Jamiyatda erkaklar va ayollar turli ijtimoiy rollarni bajaradi va bu ularning tildan foydalanishini aks etadi. Ijtimoiy ro'llar, muloqot uslublari va so'zlashuv etiketida sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi. Gender tilning turli amaliy jihatlarida, jumladan muloqot uslublari, leksik tanlovlari va diskurs strategiyalarida aks etadi. Bu farqlar muloqotda maqsadga erishish, munosabatlarni boshqarish, va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Til va gender mavzusi jamiyatda gender tengligi vaadolat masalalarini yoritishda ham muhimdir. Bu yo'nalishda o'tkazilgam tadqiqotlar, tilning jinsiy diskriminatsiyasini qay darajada kuchaytirish yoki kamaytirish mumkinligini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu mavzu gender stereotiplari va ijtimoiy kutilmalarni aniqlashda ham foydalidir. Shunday qilib, til va gender o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish sotsiolingvistika tadqiqotlarning keng ko'lamli va dolzarb yo'nalishlaridan biri deb hisoblaydi. Bu mavzu, tilning ijtimoiy strukturalarini qanday aks ettirish va shakllantirish haqida chuqurroq tushunchalar berishga xizmat qiladi.

Genderni o'rganish biologiya va fiziologiyani predmeti bo'lib, jinsiy tahlil qilish psixologlar va sotsiologlarning tadqiqotlari, madaniy va tarixiy hodisalarni tahlil qilish ob'yekti sifatida ko'rib chiqishi mumkin. Gender tadqiqotlari ko'pincha jinsiy aloqa bilan birga o'rganiladi.

Ushbu fanlar adabiyot, til, geografiya, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, kinematografiya o'rta asr tadqiqotlari, inson rivojlanishi huquq, sog'liqni saqlash va tibbiyot kabi ko'plab soxalarda gender va jinsiy aloqani o'rganadi. Biroq, bu fanlar ba'zan jinsni qanday va nima uchun o'rganishga bo'lgan yondashuvlari bilan farq qiladi. Masalan, antropologiya, sotsiologiya va psixologiyada gender ko'pincha amaliyot sifatida o'rganiladi, madaniyatshunoslikda esa, asosan, jins haqidagi g'oyalar ko'rib chiqiladi. Gender tadqiqotlari ham mustaqil fan bo'lib, keng doiradagi fanlardan metod va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Har bir

soxa “jins”ni amaliyot sifatida ko’rib chiqdi, ba’zan esa ijro etuvchi deb qabul qilindi. Gender tadqiqotlari quyidagi kichik bo’limlarga bo’lingan: Gender sotsiologiyasi, gender psixologiyasi, gender geografiyasi, falsafada gender yondashuvi, gender iqtisodiyoti, gender siyosatshunosligi, gender tenglik siyosati, kompetensiyasi, ta’limi, tilshunosligi va antropologiyasi.

Tilimizda shunday so’zlar borki, ular faqat ma’lum bir jins vakili tomonidan qo’llaniladi.

Tadqiqotlar fikricha, ayollarning nutqi erkaklarning nutqidan leksik, grammatik va fonetik jixattan farqlanib turadi. Tilshunos olimlar ayollar nutqining 30% iboralardan tashkil topgan degan hulosalarga kelishgan. Kuzatishlar natijasida ayollar va erkaklar nutqidagi qarama-qarshiliklar yaqqol ko’zga tahslanadi. Buni tahlil qilish uchun, avvalambor, ayollarning turli xil nutqiy vaziyatlarda o’zlarini qanday tutishlari haqida alohida to’xtalib o’tsak.

Dastavval, salimlashish jarayonidagi farqlarni tahlil qilsak. Ayollar ko’chada yoki ish joylarida biron bir tanishlarini ko’rib qolishsa, ancha payt hol-ahvol so’rab turishadi. Bu payda oldin ham suhbatlashilgan mavzularda hech zerikmasdan gapiriladi va do’stlaring gaplarini bo’rttirib boshqa bir insonga yetkazishlari ham ko’p kuzatiladi. Erkaklar salomlashish jarayonlarida ko’p hollarda bir ikkita so’zdan foydalanadi va suhbatni qisqa va lo’nda bo’lishini yoqtirishadi. Erkaklar biron bir mavzuda gapirishdan oldin yaxshilab o’ylab keyin o’z fikrlarini bildirishadi. Bu esa ayollardan ancha farq qilishlarini yana bir ko’rinishidir. Ayollar nutqida mubolag’a va kinoyani ham ko’p uchratish mumkin. Lekin erkaklar nutqida aniqlik, ravonlik, to’g’ri so’zlik, qisqalik ko’pincha o’z aksini topadi.

G’arbda gender tadqiqotlari rivojlanishini shartli ravishga ajratish mumkin.

1-bosqich: G’arbda ilk feministik harakatning liberal orientatsiyasining intensiv rivojlanishi bilan bog’liq dastlabki ilmiy ishlarning paydo bo’lishi bilan shakllangan. Liberal feminism tarafдорлари qонун hujjalari va siyosiy qayta yechimlar gender neytrallik jihatini hisobga olishi, jinslarning o’xshashligi hamda o’zida aks etish g’oyalarini ilgari suradilar. Ko’rib chiqilayotgan davrda ijtimoiy psixologiya fanlari struktura funksionalizm nazariyasi ustunlik qildi, unga ko’ra jinslar o’rtasidagi munosabatlar gender ro’llari tushunchasi orqali aniqlanadi: Oila misolida ko’rib chiqilsa, ayol ichki muvozanatini o’rnatish vazifasini bajaradi, erkak esa oila va ijtimoiy tuzilmalar o’rtasida instrumental ya’ni munosabatlarni tartibga solish vazifalari yuklanadi.

2- bosqich: 1980 yillarning 1- yarmiga to’g’ri keladi. Shu vaqt ichida feminism “o’xshashlik” dilemmasi rivojlanib gender muammosini o’xshashlik bir xillik orqali hal qilgan bo’lsa, radikal feminism nazariyasi va amaliyoti erkaklar va ayollar o’rtasidagi farqlarga asoslanib qurilgan.

3- bosqich: 80- yillarning 2- yarmi davriga to’g’ri keladi. Bu davrning o’zoga xosligi feministik harakati shoxlarning ko’pligi bilan tavsiflanadi, masalan, rangli feminism, postiodern, gumanistik, ekzistensial madaniy feminism va boshqalarni ko’rsatish mumkin.

Xulosa:

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin, “gender” ko’p aspektli tushuncha hisoblanadi.

Tilshunoslikning bu bo’limi barcha soxalar bilan uzviy bog’liq. Suhbat vaqtida ikkala jins vakillariga ham turki xil omillar ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ayollar, yuqorida ta’kidlangandek, muloqot jarayoni osonroq va tez kirishadi. Erkaklar esa muloqotga kirishishga biroz qiynalishadi va suhbat paytida mavzudan tashqarida savol berilsa, ular bu savollarga iloji boricha javob berishmaydi. Ayollar va erkaklar orasidagi farqlar ayniqsa xalq maqollarida o’z aksini topadi.

Erning so'zi- elning so'zi!
Ayol bor- olam bor!

REFERENCES

1. "Gender and Discourse" by Deborah Tanne
2. "Language and Gender" by Penelope Eckert and Sally McConnell-Ginet
3. "Feminism and Linguistic Theory" by Deborah Cameron
4. "The Handbook of Language and Gender" edited by Janet Holmes and Miriam Meyerhoff
5. A'ZAMXONOV S. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARNI TASHKIL ETISH //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 63-66
6. Saidabzalkhan A. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> <https://zenodo.org/records/8003552#>. – 2023.
7. A'zamxonov S. X. Ta'lism jarayonida o 'qituvchi faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 381-386.
8. Аъзамхонов С. ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТА'LIM ОЛИШНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
9. Azamkhanov S. SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF MODERN FORMS OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5.
10. Murodova, D. (2024). AN ARTISTIC IMAGE IN UZBEK “WOMEN’S PROSE” BASED ON THE STORIES OF ZULFIYA KUROLBA KIZI. Modern Science and Research, 3(2), 1172–1177. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29788>
11. Isropilov M. B. The role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 729-735.
12. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – C. 521-523.
13. Murodjon I. ZAMONAVIY JAMIYATLARDA PR TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTNING BOSH OMILARIDAN BIRI SIFATIDA //O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 446-450.